

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№11

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 437 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

YASHIL TRANSPORT SIYOSATINING BARQAROR RIVOJLANISH VA TARMOQLARARO INTEGRATSIYADAGI O'RNI	21
Rahmonov Rasul Ne'matovich	
BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	34
Safarov Sanjar Ravshan o'g'li	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	38
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
HUDUDIIY XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELII	43
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	50
A.A. Ismailov	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIVAVIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YO'NALISHLARI	56
Mansurov Mansur Alisherovich	
ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI	61
Aliqulov Aziz Haydarjonovich	
XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI O'ZBEKISTON KORXONALARIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	66
Yormamatov Qodirjon Juraqulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	71
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
OLIIY TA'LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO'YICHA XORIJIY TAJIRIBALARI	78
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TA'JIRIBASI	84
Aripov Abdulaziz Sakijonovich	
YASHIL ENERGETIKA RIVOJLANISHINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH	89
Bobokulova Muhabbat Muhammadiyeva	
ELEKTRON TO'LOVLAR VA POS TIZIMLARI — KICHIK BIZNESDA SAMARASI VA XAVFLARI	93
To'liqinov Dilshodxo'ja Olim o'g'li	
MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	98
Yusubov In'omjon Ikram o'g'li	
SOLIQ SIYOSATINI RAQAMLI BOSHQARISH ORQALI BUDJET DAROMADLARINI BARQARORLASHTIRISH STRATEGIYASI	103
Xodjimatomov Xamidullo Mamirjonovich	
OZIQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	108
Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi	
FARMASEVTIKA SANOATIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH	113
Yaqubov Timurbek G'anibekovich	
SHAXSNI OVOZI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH VA AUTENTIFIKATSIYALASH ALGORITMLARI	123
Ozoda Sabirova Shermamaxamatovna	



YASHIL IQTISODIYOT — BARQAROR RIVOJLANISH GENERATORI	129
Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna	
CHET EL MEHMONXONA TARMOQLARINING BRENDING STRATEGIYALARINI O'RGANISH	133
Ergashev Oybek Mamarasul o'g'li	
MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING MOLIVAVIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIATLARINI TAKOMILLASHTIRISH	144
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
TRANSPORT TIZIMI SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION SALOHİYATINI BAHOLASH YO'NALISHLARI	152
Ismailov Akmal Maxsudovich, Abilqosimova Shaxlo Sodiқ qizi	
MEHMONXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XODIMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	158
Abdusamidov Sarvar Adxamovich, Normurodov Tal'at Normurod o'g'li	
KORXONALARDA HR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	163
Aminova Shaxnoza Aziz qizi	
JAHON IQTISODIYOTIDA OZIқ-OVQAT XAFSIZLIK RO'LI	168
Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li	
ТУРИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ КАРАКАЛПАКСТАНА И СУЩЕСТВУЮЩАЯ ИНФРАСТРУКТУРА	174
Хошимова Камилла Навфал қизи	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARI: REKREATIONS TURIZM SOHASIDA QO'LLASH TAJRIBASI VA ISTIQBOLLARI	184
Najmitdinov G'ayratbek Sharifovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VIRTUAL TA'LIM PLATFORMALARI: TEXNIK VA PEDAGOGIK TALABLAR, TIZIMLI TAHLIL VA IQTISODIY JIATLAR	189
Turayeva Adiba Ikramovna	
ICHKI AUDIT TIZIMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	193
Nuridinova Barchinoy Xusniddin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTIDA SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	199
Xaitbaev Jasurbek Otaxanovich	
MINTAQANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	204
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	210
Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
ISLOMIY MOLIVALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELEKTNING DOLZARBLIGI	217
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MASALALARI	222
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN	225
Abdukhalikova Komila Abdukhalikovna	
BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH	229
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI: TAHLIL VA TAKLIFLAR	233
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li	
WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS	238
Abdullaev Erkinjon Azamovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA YASHIL MOLIVALASHTIRISHNING NAZARIY JIATLARI	245
Xalikov S. X.	



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORIDA KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	245
Xudayberganov Jasur Baxodirovich	
WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS	251
Abdullaev Erkinjon Azamovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISH JARAYONINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	257
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	261
Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI RESURSLARNI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH.....	268
Avulchayeva Feruza Jurakuziyevna	
BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	272
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
ZAMONAVIY ISH JOYLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLARNING ROLI	276
Tulyaganova Aziza	
ISLOMIY MOLIYALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELEKTNING DOLZARBLIGI.....	281
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
TURIZM MARKETINGINING NAZARIY ASOSLARI, ZAMONAVIY YO'NALISHLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	286
Xamidov Otabek Bakidjanovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TIZIMINI STATISTIK BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI	290
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
ЭКОЛОГАМ ПОЧЕТ И УВАЖЕНИЕ	298
Максудова Шахиста	
DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNING MOHIYATI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENTSIYALARI	304
Jo'raev Farruxbek Muxiddin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIYALASHTIRISH XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	307
Inomjonov Islomjon Iloxomjon o'g'li	
ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN	311
Abdukhalikova Komila Abdukhalikovna	
МОБИЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ.....	315
Хурамова Фарангиз Учкун кизи	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ НАЛОГОВ И АКЦИЗНАЯ РЕФОРМА УЗБЕКИСТАНА В ВТО	319
Дамир Рустамович Абдулов	
BANK TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR SHAROITIDA LIKVIDLILIK RISKINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	324
Alimov Baxtiyor Murodovich	
BANK AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	335
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH MASALALARI.....	343
Abdimuminova Saodat Taxirjonovna	
TO'QIMACHILIK SANOAT MAXSULOTLARI EKSPORT FAOLIYATI TAHLILI VA BRENDDA LIDERLIK TUSHINCHALARI	352
Abdulazizova Xushnoza Nayabovna	



ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МОДЕЛИ УПРАВЛЕНИЯ ОТХОДАМИ НА ОСНОВЕ ОПЫТА РАЗВИТЫХ СТРАН И ВОЗМОЖНОСТИ ИХ АДАПТАЦИИ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	357
Д. Мейлиева	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TIZIMIDA KASBDOSHLAR TOMONIDAN BAHOLASH (PEER REVIEW) TIZIMINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	361
Parpiyev Jaxongir Ilhomjonovich	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И БОЛЬШИЕ ДАННЫЕ (BIG DATA) В УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЯХ.....	366
Шарипов Бахтиёр Михлибаевич	
O'ZBEKISTONDA SUVGA BO'LGAN TALABNI VAQTLI QATORLAR ORQALI TAHLIL QILISH	375
Sarvar Mamasoliyev	
BOSHQARUV VA NAZORAT MAQSADLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISH	383
Isomuxamedov Akbarjon Boxodir o'g'li	
MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	389
Salomat NOROVA	
O'ZBEKISTON TURIZM BREND BOZORINING HOZIRGI HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	394
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODOLOGIYASI.....	404
Qodirov Baxodirjon Tursunovich	
O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHDA YAGONA INTERAKTIV DAVLAT XIZMATLARI PORTALINING O'RNI VA AHAMIYATI	408
Dehqonov G'ayratjon Raximovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION HAMDA TIJORATLASHTIRISH MASALALARI	414
Inoyatov Mardonbek Mo'min o'g'li	
OLIY IQTISODIY TA'LIM ORQALI EKO-INNOVATSIYALAR VA "YASHIL" INVESTITSIYALARNI RAG'BATLANTIRISH MEKANIZMLARI: SIYOSIY VA INSTITUTSIONAL DOIRALAR	418
Xasanova Zarina Maxamadaliyeva	
XODIMLAR MALAKASINI OSHIRISH — ZAMON TALABI.....	427
Narzullaev Oybek Narzullaevich	
BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHDA JURNAL-ORDER SHAKLINING AHAMIYATI.....	433
Axmedjanov Abdufato	



BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHDA JURNAL-ORDER SHAKLINING AHAMIYATI



Axmedjanov Abdufato

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Buxgalteriya hisobi kafedrasi dotsenti, i.f.n.

axmedjonovabdufato@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0005-5911-9764>

Annotatsiya. Mazkur maqolada jurnal-order shaklining buxgalteriya hisobini yuritishdagi o'rni, afzalliklari va amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Ushbu shakl buxgalteriya yozuvlarini maxsus jurnallar asosida yuritishni, xo'jalik operatsiyalarini guruhlab va tizimlashtirib, ularni asosiy schyotlarda aks ettirishni ta'minlaydi. Jurnal-order shakli ish unumdorligini oshiradi, xatolarning kamayishiga, nazoratning kuchayishiga va ma'lumotlarning tezkorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Maqolada bu shaklning memorial-order shakli bilan taqqoslanishi ham berilgan.

Kalit so'zlar: jurnal-order, buxgalteriya shakli, xo'jalik operatsiyalari, tizimlashtirish, nazorat, schyotlar, samaradorlik.

Abstract. This article discusses the significance, advantages, and practical value of the journal-order form in accounting. This method involves maintaining accounting records in special journals, grouping and systematizing business transactions, and reflecting them in the main accounts. The journal-order form improves work efficiency, reduces errors, strengthens internal control, and ensures the timely availability of financial data. The article also compares this form with the memorial-order method.

Key words: journal-order, accounting form, business transactions, systematization, control, accounts, efficiency.

Аннотация. В статье рассматриваются роль, преимущества и практическое значение журнально-ордерной формы бухгалтерского учета. Эта форма обеспечивает ведение бухгалтерского учета на основе специальных журналов, группировку и систематизацию хозяйственных операций и отражение их на счетах основного бухгалтерского учета. Журнально-ордерная форма повышает производительность труда, снижает количество ошибок, усиливает контроль и обеспечивает оперативность получения информации. Также в статье проводится сравнение журнально-ордерной формы с мемориально-ордерной.

Ключевые слова: журнально-ордерная форма, учетная форма, хозяйственные операции, систематизация, контроль, счета, эффективность.

KIRISH

O'zbekiton Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida "Iqtisodiyot – bu hisob-kitob degani. Har bir ishimizda puxta hisob-kitob birinchi o'rinda turishi lozim. Aks holda, hamma ishimiz eski hammom, eski tos bo'lib qolaveradi" – deb ta'kidlaganlari ham buxgalteriya hisob-kitob ishlarini zamonaviy darajaga ko'tarishni ko'zda tutadi.

Shu munosabat bilan mamlakatimizda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish uchun bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, mamlakatimizda MHXSlariga o'tishni



ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-son "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-martdagi PQ-4265-son "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va 2019-yil 17-yanvardagi PQ-4124-son "Kon-metallurgiya tarmog'i korxonalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari bilan yillik moliyaviy hisobotning MHXSlariga muvofiq e'lon qilinishi va uni Auditning xalqaro standartlari (AXS) asosida tashqi auditdan o'tkazilishi bo'yicha vazifalar yuklatildi.

Bugungi kunda O'zbekistonda buxgalteriya hisobi va hisobotini jahon andozalari darajasiga chiqarishning yagona yo'li bu moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini va ilg'or xorijiy tajribalarni, sohaga doir jahon adabiyotlari va hujjatlarini o'rganish hamda ularni mamlakatimiz iqtisodiyotining xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy qilishdan iboratdir. Bu yo'l eng dolzarb va o'ta muhim yo'ldir.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining joriy qilinishi moliyaviy hisobotlardagi axborotlarning ishonchiligi va ob'ektivligini oshirish bilan bir qatorda xorijiy investitsiyalarni mamlakatimiz itisodiyotiga kiritishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qadimda iqtisodiyotning tub ma'nosini insonlar mantiqan (intuitiv holatda) anglashgan. Biroq, uning mazmun mohiyati xususida ilmiy qarashlar keyinchalik paydo bo'lgan. Jumladan, qadimgi grek olimlari iqtisodiy faoliyatni – uy xo'jaligi va uni yuritish, deb tushuntirishgan.

Menkyu N.G. – "Mulk egasi – bu moddiy va intellektual mulkga ega va bu mulkni o'z hohishiga ko'ra daromad olish uchun ishlatadigan shaxs. "Bozor iqtisodiyotida ... millionlab firma va uy xo'jaliklarining ... o'zlari kimni ishga olishni va va nimani ishlab chiqarishni hal qiladilar" degan fikrni bildirgan.

E.Shavqiev – "Ishlab chiqarish korxonalari – ishlab chiqarish bo'linmalari, boshqaruv organlari va korxona xodimlariga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlardan iborat bo'ladi. Korxona qanchalik yirik bo'lsa, uning ishlab chiqarish tuzilmasi (tarkibi, tuzilishi) shunchalik murakkab bo'ladi. Sanoat korxonalarining umumiy va ishlab chiqarish tuzilmalari mavjud. Ishlab chiqarish bo'g'inlari, korxona boshqaruvi hamda xodimlarga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, ularning miqdori, kattaligi va egallab turgan maydoni, xodimlarining soni va ishlab chiqarish imkoniyatlari korxonaning umumiy tuzilmasini ifodalaydi" degan fikrni bildirgan.

Q.Yo'ldoshev., Q.Muftaydinovlar – "Iqtisodiyot tushunchasiga mamlakatdagi ishlab chiqarish holati, uning joylanishi va dinamikasi (harakati) ham kiradi. U mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari bilan ham bog'liqdir. Masalan, O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi holati va darajasi uning xom ashyo ishlab chiqarishga yo'naltirilganligi, asta-sekin bevosita pirovard (tayyor) mahsulotlar ishlab chiqarishga va o'z aholisi hamda chet el ehtiyojlarini qondirishga o'tila borayotgani bilan tavsiflanadi" degan fikrlarni bildirishgan.

Yuqori aniqlikdagi va aqlli texnologiyalarning yaratilishi hamda ulardan keng miqyosda foydalanilishi dunyoning o'zgarishiga olib kelmoqda. Inson mehnati asta-sekin robotlar mehnati bilan almashtirilishiga qaramasda, liderlar hamon dunyoni boshqarishda davom etmoqdalar. Ushbu o'zgarishlar korxona faoliyati natijalaridan manfaatdor tomonlar manfaatlarini hisobga olgan holda biznesning asosiy vazifasini ham biznesni tashkil etish va boshqarishni mukamallashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, statistik ma'lumotlar asosida ularni tahlillari amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jurnal - order shakli 40 - yillarning boshida yuzaga kelgan. Unda o'sha yillarda hisob fani va amaliyoti tomonidan yaratilgan barcha eng ilg'or bo'lgan narsalardan foydalanilgan edi. Jurnal - order shakli bilan buxgalteriyaga kiritilgan o'zgarishlar asosan hisobdagi ro'yxatga olish texnikasiga tegishli bo'lgan, lekin u bir vaqtning o'zida hisob registrlariga hujjatli ma'lumotlarni tayyorlash tizmini ham yaxshilashga olib keldi.

Jurnal - order shaklining asosida dastlabki hujjatlarning ma'lumotlarini jamg'arish tamoyili yotadi. Bu tamoyilni hisob ishlarining ayrim uchastkalarida, masalan buxgalteriyali hujjatlashtirishda ba'zi bir sintetik schyotlar bo'yicha yozuvlarni tayyorlashda qo'llash memorial - order shaklida ham mavjud bo'lgan. Lekin jurnal - order shaklida hisobni amalga oshirishda hisob ma'lumotlarini jamg'arib borishni asosiy tamoyil sifatida qabul qilingan.

Jurnal - order shaklida bir turdagi muomalalarni, ya'ni bitta sintetik schyotda aks ettiriladigan muomalalarni, hisobot davri mobaynida nafaqat muomalalarning summalarini jamg'arish imkoniyatini bera qolmaydi, shu bilan bir vaqtda ularni korrespondentsiyalanuvchi schyotlar bo'yicha guruhlash imkoniyatini ham yaratadi. Hisobot



davrining oxirida har bir registrda barcha yozuvlarning yakunlari ham korrespondentsiyalanuvchi schyotlar bo'yicha, ham unda ro'yxatga olingan barcha muomalalar bo'yicha butunlay hisoblab chiqiladi, so'ngra ulardan Bosh daftarga yozish uchun foydalaniladi.

Jurnal - order shaklida qo'llaniladigan asosiy registrlar jurnallardan iboratdir, chunki hujjatlar ularda xronologik tartibda ro'yxatga olib boriladi. Jurnallarning yakunlari esa korrespondentsiyalanadigan schyotlar bo'yicha guruhlangan sintetik schyotlarning bir oylik aylanma summolari hisoblanadi. Bu yakunlar mazkur schyotning aylanma summalarini Bosh daftarda aks ettirish uchun tayyor buxgalteriya yozuvlarini beradi, ya'ni orderlar vazifasini bajarishadi.

Shuning uchun ushbu shaklning asosiy registrlari jurnal - orderlar, shaklning o'zi esa – jurnal - order shakli deb nomlanadi. Hisobning jurnal - order shaklida xo'jalik muomalalari to'g'risidagi ma'lumotlar hujjatlardan jurnal - orderlarga yoki jamg'aruvchi va guruhlovchi vedomostlarga o'tkaziladi. Ma'lumotlarni hujjatlardan bevosita jurnal - orderlarga yozish faqat uncha ko'p bo'lmagan muomalalarni qayd etiladigan schyotlardangina («Asosiy vositalar», «Kassa», «Hisob-kitob schyoti», «Ustav kapitali va boshqalar») mumkindir. Boshqa schyotlar bo'yicha esa ma'lumotlarni avval jamg'arish yoki guruhlab olish lozim. Shu maqsadda jamg'aruvchi va guruhlovchi vedomostlar qo'llaniladi va ularga qilinadigan yozuvlar xo'jalik muomalalarni ko'pchilik jurnal - orderlarga aks ettirishdan albatta oldin amalga oshiriladi.

Jurnal – orderlarda sintetik hisobning barcha ma'lumotlarini, ularning ko'pchiligida esa tahliliy hisob ma'lumotlari ham mavjud. Shuning uchun mustaqil tahliliy hisob faqat ba'zi eng murakkab bo'lgan schyotlar bo'yicha yuritiladi. Jurnal - orderlarning yakunlari bir yilga ochiladigan Bosh daftarga ko'chiriladi va ularda faqat bir oylik aylanma aks ettiriladi. Bosh daftarda har bir schyot bo'yicha aylanmalar ko'rsatiladi va qoldiqlar chiqariladi; schyotning krediti bo'yicha aylanmalar umumiy yakun bilan beriladi (chunki ular jurnal - orderlarda ochiq beriladi), debeti bo'yicha esa korrespondentsiyalanuvchi schyotlar bo'yicha beriladi (har xil jurnallarga tarqatilib yuborilgan debetli aylanmaning korrespondentsiyasini ko'rsatish uchun). Bosh daftar, jurnal - orderlar, jamg'aruvchi va guruhlovchi vedomostlarning ma'lumotlaridan buxgalteriya balansi va hisobotni tuzish uchun foydalaniladi.

Jurnal - order shakli oldingi hisob shakllariga qaraganda, axborotni ayniqsa qo'l bilan ishlash sharoitida hisobni yuritishning mehnat sig'imini pasaytirishi bilan albatta afzalliklarga ega. Shuning uchun u faqat sanoatda emas, balki xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida ham keng qo'llanila boshlagan. Jurnal - order shaklining asosiy registri hisoblangan jurnal orderlar (memorial - order shaklidagi bosh kitobdagidek) xo'jalik muomalalarini shaxmat tamoyilida aks ettirishga asoslangan.

Jurnal - orderlar ikki yo'nalishda - debetli yoki kreditli belgi bo'yicha tuzilishi mumkin. Kreditli belgi qulayroq deb qabul qilingan, chunki u tovar - moddiy boyliklar va pul mablag'laridan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirishga xizmat qiladi va shuning uchun ham u jurnal - orderlarni tuzishda qabul qilingan. Uning mohiyati shundan iboratki, har bir jurnal - orderlarda mazkur sintetik schyotning (yoki bir turdagi schyotning) kreditli aylanmasi ular bilan korrespondentsiyalanuvchi debetlanadigan schyotlar bo'yicha aks ettiriladi.

Ko'pchilik jurnal - orderlarda ro'yxatga olinadigan muomalalar, ularni korrespondentsiyalanadigan schyotlar bo'yicha aks ettirishdan tashqari, subschyotlar, xarajatlar moddalari va mazkur hisob ob'ektini tasvirlash uchun talab qilinadigan iqtisodiy ko'rsatkichlarning xususiyatlaridan kelib chiqadigan boshqa belgalar bo'yicha guruhlanadi.

Shunday tarza moddiy boyliklar, umumishlab chiqarish, ma'muriy va umumxo'jalik xarajatlarni, ishlab chiqarish va boshqalarni hisobga olish bo'yicha jurnal - orderlar (va ularning yordamchi vedomostlari) yuritiladi.

Hisobning jurnal - order shakli (ko'pchilik schyotlar bo'yicha) sintetik va tahliliy hisobni birga olib borish, hisobot ko'rsatkichlarini bevosita hisob registrlarining o'zidan olish, ish amallari sonini qisqartirish va xo'jalik muomalalarini aks ettirish ancha tartibga solish imkonini ta'min qiladi. Sintetik va tahliliy hisobni birgalikda yuritish uchun chiziqli (lineyniy) yozuv va summalarni tahliliy qismlar bo'yicha guruhlash usullaridan foydalaniladi.

Chiziqli yozuv - sintetik va tahliliy hisobning birgalikda olib borilishining eng oddiy va yaqqol amalidir. Hisobning jurnal - order shaklida tegishli registrlar 6-sonli jurnal - order va 16 - sonli vedomost ko'rinishida keltiriladi. Ikki hisob turining birgalikda olib borish shuningdek xaridorlar hisobdor shaxlar va boshqalar bilan hisob - kitoblarni hisobga olishda ham qo'llaniladi. Sintetik va tahliliy hisob summalarini tahliliy qismlar bo'yicha guruhlash yo'li bilan birgalikda yuritish ayniqsa har xil xarajatlarni aks ettirish uchun qulaydir.

Masalan, «Davr xarajatlari» schyotining debetiga yoziladigan barcha summalarni tegishli vedomostda (15 - sonli vedomostda) subschyotlar va shu xarajatlarning moddalari bo'yicha guruhlash mumkin. Natijada, «Oylik yakun» nomli ustun har bir subschyot hamda shu schyotning har bir tahliliy moddasi bo'yicha xarajatlarni umumiy summasiga ega bo'ladi. Barcha xarajatlarning umumiy summasi umumiy ko'rsatkich bo'lib, shu oxirigi ustunning yakuni bilan tavsiflanadi.

Bunday amal shuningdek umumishlab chiqarish xarajatlari, davr xarajatlari va boshqalarni hisobida ham qo'llaniladi.



Hisobot ko'rsatkichlarini bevosita registrning olish jurnal - order shaklida har xil yo'llar bilan amalga oshirish mumkin. Lekin ularning barchasi hisobot jadvaliga to'g'ridan - to'g'ri kiritiladigan summalarni ko'rsatuvchi hisob ma'lumotlarining bevosita registrning o'zida guruhlashni ta'minlashga asoslangan.

Bunda eng keng tarqalgan amalga tahliliy hisobni hisob ko'rsatkichlari bo'yicha yuritish va hisobot ma'lumotlarini hisob - kitob qilish uchun hisob registriga maxsus jadval kiritish hisoblanadi. Tahliliy hisobning tuzilishini hisobot ko'rsatkichlariga muvofiq ravishda tuzilishiga misol qilib «Foyda va zararlar» schyoti bo'yicha jurnal - orderni keltirish mumkin. Unda moliyaviy natijalar tahliliy hisobning barcha moddalarining ro'yxatidan iborat bo'lgan jadval keltiriladi.

Summalarni ko'rsatish uchun ikkita ustun: «yil boshidan hisobot oyigacha» va «joriy oy uchun» ustuni keltirilgan. Bu ustunlarning har biri «debet» va «kredit» ustunlariga bo'linadi. Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot shakliga kiritiladigan hisobot ma'lumotlarini olish uchun summa ustunlarga (debet va kredit bo'yicha tegishli tartibda) yozib qo'yilgan har bir moddaning yakuniy ma'lumotlari juft ravishda summalashtiriladi. Hisobot ma'lumotlari hisob summalarini u yoki boshqacha guruhlanishini talab qilgan taqdirda, hisob registrariga maxsus jadval kiritiladi. U ushbu registrning asosiy bo'limlarida aks ettiriladigan summalarni yozish bilan bir vaqtda (birdaniga) to'ldiriladi. Shunga o'xshash jadvallar ishlab chiqarish xarajatlarini, mahsulot sotilishini, mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob - kitoblar va boshqalarni hisobga olish uchun mo'ljallangan jurnal - orderlarda ham mavjud.

Hisobning jurnal - order shaklida erishilgan ish amallari sonining qisqartirilishi juda muhim ahamiyatga egadir. Bu erda, masalan, memorial - order shaklida ishlatiladigan memorial orderlar va ro'yxatga olish jurnali yo'q, ko'pchilik schyotlar bo'yicha sintetik hisob tahliliy hisob bilan birlashtirilgan; hisobot ko'rsatkichlar avtomatik tartibda, qo'shimcha tanlab olish yoki qo'shimcha hisob - kitoblarsiz, bevosita hisob registraridan olinadi. Bularning barchasi hisob registrarida qilinadigan yozuvlarni bartaraf qilish va hisobni asosan quyidagi uchta ish amallari: muomalalarni hujjatlarda qayd etish, hujjatlardan ma'lumotlarni hisob registrariga ko'chirish va hisob registrarining yakuniy ko'rsatkichlarini hisobotda umumlashtirish yordamida amalga oshirish imkonini beradi.

Shunday qilib, jurnal - order shaklidagi qayta - qayta ko'chirishlar soni memorial order shaklidagiga qaraganda ikki martadan ortiqroqqa kamayadi, natijada hisob yuritishlarga ketadigan vaqt tejraladi, xatolarning yuzaga kelish imkoniyatlari kamayadi, hisob registrarlari ancha yaqqollashadi, chunki ularda aks ettirilgan barcha ob'ektlar haqidagi ma'lumotlar mavjuddir.

Jurnal - order shaklidagi xo'jalik muomalalarini aks ettirishni tartibga solish uning barcha registraridan ko'rish mumkin. Masalan, 2 - sonli jurnal - orderda hisob - kitob schyotidan pul xarajatlari to'g'risidagi barcha ma'lumotlar qat'iy muayyan ustunlarga yozib boriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yozuvlarning yanada ham ko'proq tartibga solinishi yuqorida eslatib o'tilgan 15 - sonli vedomost, 10 - sonli jurnal - order (ishlab chiqarish xarajatlari) va boshqa registrar yordamida erishiladi. Ularda aks ettiriladigan har bir summa nafaqat ma'lum bir ustungagina emas, balki tegishli bo'lgan qatorga ham yozib boriladi. Ko'rib chiqilgan xususiyatlar jurnal - order shaklining hisobining va boshqa turlaridan keskin farq qiladigan, shubhasiz, afzalliklaridan hisoblanadi. Lekin u kamchiliklardan ham holi emas. Masalan, ayrim registrarlarning tuzilishi juda murakkab bo'lib, ularni to'ldirish jarayoni juda qiyin kechadi. Unda hisobli ro'yxatga olish texnikasini o'zlashtirish ko'p harakatni talab qiladi, chunki har bir jurnal - order tegishli hisobning ob'ekti xususiyatlariga moslashgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Buxgalteriya hisobi: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; - T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. 624 b.
2. Bakiyeva X., Rizayev N. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Masalalar to'plami. -T.: TMI, 2007 y
3. Accounting. Carl S.Warren, James M.Reeve, Jonathan E.Duchac, 2014
4. Джамбакиева Г. Финансовый учет. Учебное пособие. -T.: "Iqtisod-moliya", 2012 g.
5. Xolbekov R.O. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. - T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 201 ly.
6. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit. Toshkent - 2004.
7. Urazov K.B. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari: 5340900- buxgalteriya hisobi va audit ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik/ K.B.Urazov S.V.Vaxidov; O'zR oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent Davlat Iqtisodiyot un-ti, Samarqand iqtisodiyot va seryis in-ti. -T.: Adib, 2011. -4 9 6 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
